

## **O'RTA MAKTABLARDA XORIJIY TIL (INGLIZ TILI)NI O'QITISHDAGI KAMCHILIKLAR VA UNING YECHIMLARI**

*SamDChTI 2-bosqich talabasi*

*Qamariddinova Nozima Kamoliddinovna*

*Email: nozimaqamariddinova132@gmail.com*

*Ilmiy raxbar: N.N. Zubaydova*

*Sh.O.Mamayoqubova*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada siz maktablardagi ingliz tili fanining o'qitish sistemasi, unda kelib chiqadigan qiyinchiliklar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar. Maqola davomida dars o'tishdagi kamchiliklar, yangi o'qitish metodlari, turli texnologiyalardan foydalanish va o'quvchining e'tiborini torta oladigan turli o'yinlar va turli mashg'ulotlarni dars davomida qo'llay olishlik haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bundan tashqari, dars davomida erkin muloqot tizimi (speaking)ning o'quvchiga qanday ta'sir qilishi haqidagi ma'lumotlarni bilib olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, yangi metodlar, erkin muloqot(speaking), faollik, "taboo words" o'yini

**Deficiencies in teaching foreign language (English) in secondary schools and their solutions**

*SamDChTI 2nd stage student*

*Kamariddinova Nozima Kamoliddinovna*

*Phone: +998993376617*

*Email: nozimaqamariddinova132@gmail.com*

*Scientific supervisor: N.N. Zubaydova*

*Sh.O.Mamayoqubova*

**Annotation.** In this article, you will learn about the English language teaching system in schools, the difficulties that arise in it, and the relationship between the teacher

and the student. During the article, you will have information about the shortcomings of teaching, new teaching methods, the use of different technologies and the ability to use different games and different activities during the lesson that can attract the attention of the student. In addition, during the lesson, you can find out information about how the system of free communication (speaking) affects the student.

**Key words:** foreign language, new methods, free communication (speaking), activity, "taboo words" game

### **Недостатки преподавания иностранного языка (английского) в общеобразовательных школах и пути их решения**

*Студент 2 ступени СамДЧТИ*

*Камариддинова Нозима Камолиддиновна.*

*Телефон: +998993376617*

*Электронная почта: nozimaqamariddinova132@gmail.com*

*Научный руководитель: Н.Н. Зубайдова*

*Ш.О.Мамаякубова*

**Аннотация.** В этой статье вы узнаете о системе преподавания английского языка в школах, трудностях, которые в ней возникают, а также взаимоотношения между учителем и учеником. В ходе статьи вы получите информацию о недостатках преподавания, новых методах обучения, использовании разных технологий и возможности использовать на уроке разные игры и разные виды деятельности, способные привлечь внимание ученика. Кроме того, в ходе занятия можно узнать информацию о том, как система свободного общения (говорения) влияет на ученика.

**Ключевые слова:** иностранный язык, новые методы, свободное общение (говорение), деятельность, игра «запретные слова».

Hozirgi kunda aksariyat maktablarda xorijiy til ya'ni ingliz tilini o'qitish sistemasi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bunga asosiy sabab hozirgi kunda zamonaviy

yoshlarning xorijiy tilga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarining ortib borishidir. Darhaqiqat, zamonaviy yoshlarning deyarli 70-80 foizi ingliz tili faniga qiziqib borishmoqda. Bu juda quvonarli holat, albatta. Ammo ba'zi maktablardagi o'qitish sistemasi asosan ingliz tilini o'qitish sistemasi yetarli darajada emas va buning natijasida o'rganish davomida turli qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. O'qitish sistemasining yetarli emasligi bu- malakali o'qituvchilarning yetishmasligi yoki o'z kasbini suiste'mol qilib faqat oylik maosh uchun ishlaydigan ba'zi kadrlarning borligidan dalolat beradi. To'g'ri bunday kadrlar juda kam bo'lishi mumkin, lekin shularning borligi ham kelajak avlod uchun yetarli deb o'ylayman. Shunchaki maosh uchun ishlaydigan bo'lib qolmaslik uchun o'qituvchida quyidagi qobiliyatlar bo'lishi muhim rol o'ynaydi: O'quvchilarni hurmat qilish - O'quv mashg'ulotlarini sifatli va turli ko'rgazmali qurollar, turli "Warm-up" mashg'ulotlari va darsga oid qiziqarli o'yinlar bilan o'tkazish. Ingliz tili darslari davomida faqatgina ingliz tilidan foydalanish - O'z malakasini doimiy ravishda oshirib borish. Kabi eng muhim xislatlarga ega bo'lishi dars sifatini yanada oshirishi uchun yordam beradi. Bundan tashqari o'qituvchi dars davomida erkin muloqot (speaking) usulini ham qo'llashi kerak. Chunki dars davomida speaking qilish o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi va omma oldida bema'lol muloqot qila oladigan qobiliyatga ega bo'ladi. Bundan tashqari keyinchalik o'quvchi ingliz tilida ravon va hech qanday qiyinchiliklarsiz gaplasha oladigan bo'ladi. Dars davomida o'quvchilar zerikib qolmasligi uchun turli o'yinlardan foydalanish bu darsning sifatini ham qiziqishni ham oshiradi. Har doim bir xil o'yinlar yoki metodlar ham o'quvchining zerikishiga olib keladi shuning uchun ham dars davomida turli o'yinlar yoki metodlarni qo'llashga harakat qiling shundagina o'quvchi darsga bo'lgan qiziqishi ortib boradi. Eng yaxshi o'yinlardan biri bu "Taboo words" (taqiqlangan so'zlar) o'yinidir. Bu o'yinni asosan siz uyga vazifa uchun yangi so'zlar bergan bo'lsangiz ularni so'rab olish uchun qo'llashingiz mumkin. Taboo words o'quvchilarga sinonim so'zlar va so'zlarni tariflarini qo'llashga yordam beradi. Sinfni ikkiga bo'linadi va jamoalar bir birlariga qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirish uchun tanlaydi. O'qituvchi esa

o'quvchilar ortiga o'tib turadi va katta qog'ozda yozilgan so'z ushlab turadi. O'rindiqa o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqa o'tirgan a'zosiga siz ushlab turgan so'zni aytirish uchun 3 daqiqa vaqti bo'ladi. Eng asosiysi ular shu so'zni nima bo'lganda ham ishlatmasligi kerak bo'ladi. Bu kabi o'yinlardan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Eng asosiysi xohish va harakat. Hech qachon yuksalishdan to'xtamaslik uchun o'z ustingizda ishlang va kelajak uchun yetuk mutaxassislar yetishtirib berishga o'z hissangizni qo'shing!

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. <https://uz.goodinternet.org> Internet of Good Things Uzbekistan
2. Sh.O.Mamayoqubova. "Pedagogical conditions of professional development of higher Educational establishment teacher" Xalqaro so'z san'ati jurnali. ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. 2022 5 son, 48 p
3. Dunyo tillari haqida qiziqarli faktlar (google ma'lumoti).
2. Ingliz tili darslarida qiziqarli o'yinlar Hasanboy.uz Hasanboy. Rasulov